

## TALABALARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

*Temirova Orzigul Yuldashevna*

*Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani 41-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiya tushunchasining ilmiy mohiyati kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining farqi asosida ochib beriladi, uning kommunikativ kompetensiya nazariyasi doirasidagi rivojlanish bosqichlari (Hayms, Kaneyl va Sveyn, Bachman va Palmer modellari hamda CEFR hujjati) yoritiladi. Ingliz tili o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini tavsiflovchi beshta tayanch paradigma – kognitiv, innovatsion, kommunikatsion, tizimli va gumanistik paradigmalar – asoslab beriladi. Nutqiy kompetensiya shakllanishining psixologik-didaktik shart-sharoitlari tizimlashtiriladi.*

*Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, tayanch paradigmalar, psixologik-didaktik shart-sharoitlar, CEFR, ingliz tili o'qituvchisi, kasbiy nutq faoliyati.*

## ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ

*Темирова Орзигул Юлдашевна*

*Учитель школы №41 Каршинского района Кашкадарьинской области*

*Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы формирования речевой компетенции у будущих учителей английского языка. Раскрывается научная сущность понятия речевой компетенции на основе разграничения понятий «компетенция» и «компетентность», освещаются этапы её развития в рамках теории коммуникативной компетенции (модели Хаймса, Канале и Свейн, Бахмана и Палмера, а также документ CEFR). Обосновываются пять базовых парадигм, характеризующих профессиональную речевую деятельность учителя английского языка – когнитивная, инновационная, коммуникационная, системная и гуманистическая. Систематизируются психолого-дидактические условия формирования речевой компетенции.*

*Ключевые слова: речевая компетенция, коммуникативная компетенция, компетентностный подход, базовые парадигмы, психолого-дидактические условия, CEFR, учитель английского языка, профессиональная речевая деятельность.*

## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE

*Temirova Orzigul Yuldashevna*

*Teacher, School No. 41, Qarshi District, Qashqadaryo Region*

*Annotation. The article analyses the theoretical and methodological foundations of forming speech competence in future English language teachers. The scientific essence of the concept of speech competence is revealed through the distinction between "competence" and "competency", and its stages of development within communicative competence theory are outlined (the models of Hymes, Canale and Swain, Bachman and Palmer, and the CEFR document). Five basic paradigms characterising the professional speech activity of an English teacher – cognitive,*

*innovative, communicative, systemic and humanistic – are substantiated. The psychological-didactic conditions for forming speech competence are systematised.*

*Keywords: speech competence, communicative competence, competency-based approach, basic paradigms, psychological-didactic conditions, CEFR, English language teacher, professional speech activity.*

Kirish (Introduction). Jahon ta'lim makonida chet tillarni o'rgatishning bosh maqsadi tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Til tizimini bilishning o'zi endilikda yetarli emas, asosiy e'tibor tildan real muloqotda erkin foydalana olish qobiliyatiga, ya'ni nutqiy kompetensiyaga qaratilmoqda. Globallashuv sharoitida ingliz tili fan, texnologiya va xalqaro hamkorlikning yetakchi tiliga aylangani sababli, bo'lajak mutaxassisning, xususan ingliz tili o'qituvchisining kasbiy raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning nutqiy kompetensiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar chet tilini bilishni zamonaviy kadrning zaruriy fazilati sifatida belgilaydi, oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi bo'lsa til ta'limi sifatini tubdan oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga amaliyotda jiddiy ziddiyat kuzatiladi: bir tomondan ta'lim oldiga yuksak kommunikativ talablar qo'yilmoqda, ikkinchi tomondan an'anaviy o'qitish usullari bu talablarga to'liq javob bera olmayapti – o'quvchi yoki talaba ko'pincha til qoidalarini biladi, ammo erkin gapira olmaydi. Bu holat nutqiy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi, buning uchun esa avvalo mavzuning nazariy-metodologik zaminini aniq belgilab olish zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy negizlari xorijiy olimlar – N.Xomskiy, D.Xayms, M.Kaneyl, M.Sveyne, L.Bachman kabi tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan, muammoning psixologik-pedagogik asoslari esa L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, I.A.Zimnyaya, Ye.I.Passov kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shunga qaramay, nutqiy kompetensiyani shakllantirishning yaxlit nazariy-metodologik asoslari, xususan uning tarkibiy tuzilishi, tayanch paradigmalari va psixologik-didaktik shart-sharoitlari kompleks tarzda tizimlashtirilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur maqolada nutqiy kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi va shakllanish bosqichlari, ingliz tili o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini tavsiflovchi tayanch paradigmalar hamda nutqiy kompetensiya shakllanishining psixologik-didaktik shart-sharoitlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotda nazariy metodlar majmuidan foydalanildi: ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlari, jumladan 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tashkil etadi. Tahlil dialektik bilish nazariyasiga, tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlarga, shuningdek kommunikativ kompetensiya nazariyasi va faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions).

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining farqi. Kompetensiya va kompetentlik atamalarining o'zaro nisbati masalasi jahon pedagogikasida uzoq munozaralarga sabab bo'lgan: bir guruh olimlar bu ikki tushunchani sinonim sifatida qo'llasa, boshqa guruh ularni qat'iy ajratadi. Mazkur tadqiqot ikkinchi yondashuvga tayanadi: kompetensiya – shaxs egallashi lozim

bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasidan iborat ijtimoiy talab, kompetentlik esa shu talabning real shaxsda namoyon bo'lgan, faoliyatda tasdiqlangan ko'rinishidir. Boshqacha aytganda, kompetensiya potensial, kompetentlik esa aktualdir. Ushbu farqni anglash o'quv jarayonini loyihalashda muhim ahamiyatga ega, chunki biz talabalarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish haqida so'z yuritar ekanmiz, ularning muayyan me'yorga muvofiq nutqiy harakatlarni mustaqil amalga oshira olish qobiliyatini nazarda tutamiz.

Kompetensiyaviy yondashuvning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishida uch bosqichni ajratish mumkin. Birinchi bosqich XX asrning 60-yillariga to'g'ri kelib, bu davrda til o'rgatishda strukturaviy yondashuv hukmron edi va til faqat tovush, so'z va grammatik qoidalar tizimi sifatida qaraldi. Ikkinchi bosqichda kommunikativ yondashuv yuzaga kelib, tilni muloqot quroli sifatida talqin qildi. Uchinchi bosqichda esa kompetensiyaviy yondashuv shakllandi – u natijaga, ya'ni talabaning real vaziyatda muloqot qila olish qobiliyatiga e'tibor qaratadi va hozirgi kunda chet til ta'limining metodologik poydevoriga aylandi.

N.Xomskiy til kompetensiyasi tushunchasini fanga olib kirgan: uning fikricha, har bir sog'lom inson ona tilining qoidalarini bilim darajasida egallaydi, biroq bu model ijtimoiy omilni hisobga olmagan – til kompetensiyasi grammatik to'g'rilikni ta'minlaydi, ammo muloqotning maqsadga muvofiqligini kafolatlamaydi. Aynan shu kamchilik D.Xayms tanqidiga asos bo'ldi: u insonning til qobiliyati to'rtta savolga javob berishni o'z ichiga olishini asosladi – muayyan til shakli grammatik jihatdan mumkinmi, u amalga oshirish jihatidan bajariladimi, u muayyan kontekstda maqbulmi va u real hayotda qo'llaniladimi. Bu to'rt mezon nutqiy kompetensiyaning ko'p qirrali tabiatini ochib berdi.

M.Kaneyl va M.Sveyn kommunikativ kompetensiyaning to'rt tarkibiy qismini taklif qildilar: grammatik kompetensiya (leksika, fonetika va grammatika bilimi), sotsiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy kontekstga mos nutq yaratish qobiliyati), diskursiv kompetensiya (yaxlit matn tuzish va uni tushunish qobiliyati) va strategik kompetensiya (muloqotdagi uzilishlarni bartaraf etish qobiliyati). L.Bachman bu modelni yanada takomillashtirib, til bilimini tashkiliy va pragmatik qismlarga bo'ldi: tashkiliy bilim grammatika va matn tuzilishini, pragmatik bilim esa nutqning funksiyalari va ijtimoiy-lingvistik normalarni qamrab oladi. Tillarni bilish, o'rgatish va baholashning umumevropa mezonlari tizimi (CEFR) bu nazariy izlanishlarning amaliy yakuni bo'lib, til egallashning oltita darajasini belgilab berdi: A1 va A2 boshlang'ich, B1 va B2 mustaqil, C1 va C2 esa malakali foydalanuvchini tavsiflaydi. Shu tariqa nutqiy kompetensiya mavhum tushunchadan o'lgan natijaga aylandi.

Nutqiy kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi. Nutqiy kompetensiya bir necha o'zaro bog'liq komponentdan tashkil topadi: lingvistik komponent (til vositalari ustidan egalik), nutqiy komponent (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari), sotsiokultural komponent (muomala odobi, etiket me'yorlari va madaniy ramzlar) hamda kompensator komponent (muloqotdagi qiyinchiliklarni – masalan, so'z topa olmaslik holatlarini – izohlash, sinonim qidirish yoki imo-ishora orqali yengish strategiyalari). Til o'rganish nazariyasida retseptiv (tinglab tushunish, o'qish) va produktiv (gapirish, yozish) ko'nikmalar farqlanadi; tajriba shuni ko'rsatadiki, retseptiv ko'nikmalar odatda produktiv ko'nikmalardan oldinroq shakllanadi, biroq faqat retseptiv ko'nikmalarga e'tibor berish nutqiy passivlikka olib keladi.

M.Sveynning chiqarish gipotezasiga ko'ra, til faqat tinglab tushunish orqali emas, balki faol nutq hosil qilish orqali o'zlashtiriladi: talaba o'z fikrini ifodalashga harakat qilganda til imkoniyatlarining chegarasini sezadi va bilim bo'shliqlarini to'ldirishga intiladi. R.Shmidtning anglash gipotezasi bo'yicha esa til hodisasini o'zlashtirish uchun talaba uni ongli ravishda

payqashi zarur – tasodifiy uchragan til materiali o‘z-o‘zidan o‘zlashmaydi. Shu sababli nutqiy kompetensiyani shakllantirishda faol nutq mashqlari bilan ongli anglashni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Nutqiy kompetensiya shakllanishining bosqichlari va baholash mezonlari. Nutqiy kompetensiya shakllanishi izchil beshta bosqichdan iborat. Birinchi – idrok etish bosqichida talaba yangi til materialini qabul qiladi. Ikkinchi – takrorlash bosqichida u namunalarni takrorlab, mashqlarni bajaradi. Uchinchi – mustaqil ishlab chiqarish bosqichida talaba egallagan materialni namunaga tayanmasdan mustaqil qo‘llaydi, aynan shu yerda bilim ko‘nikmaga aylanadi. To‘rtinchi – ijodiy-transfer bosqichida talaba nutqiy ko‘nikmalarini yangi, notanish kommunikativ vaziyatlarga ko‘chirib, til vositalarini ijodiy tarzda qo‘llaydi. Beshinchi – refleksiv baholash bosqichida talaba o‘z nutqiy faoliyatini tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarini anglaydi.

Nutqiy kompetensiyaning shakllanish darajasini baholash uchun to‘rt mezon ajratiladi: nutqning to‘g‘riligi (grammatik va leksik xatolar soni), ravonligi (nutq tezligi va uzluksizligi), mazmundorligi (fikir boyligi) va mosligi (vaziyatga muvofiqlik). Bu mezonlar CEFR darajalari bilan muvofiqlashtirilgan holda qo‘llanilganda baholashning obyektivligini ta‘minlaydi.

Ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini o‘rganishning tayanch paradigmalari. O‘qituvchining kasbiy nutq faoliyatini yaxlit tavsiflash uchun beshta tayanch paradigma ajratiladi: kognitiv, innovatsion, kommunikatsion, tizimli va gumanistik. Bu paradigmalar bir-birini istisno qilmaydi, balki to‘ldiradi. Kognitiv paradigma fikrlash, xotira va boshqaruv jarayonlarining nutqiy faoliyatdagi rolini, jumladan o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bilim almashinuvining tashqi tuzilmasini tavsiflaydi; bunda kognitiv optimizmga, ya‘ni bilim va tajribaning izchil, ishonchli almashinuviga tayanish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion paradigma o‘qituvchining yangilikni qabul qilish va uni joriy etish jarayonlarini o‘rganadi: yangilikka munosabat qabul qilish, shubhalanish yoki rad etish shaklida namoyon bo‘lishi mumkin, o‘qituvchining innovatsion madaniyati esa uning kognitiv maydoniga yangilikni qabul qilishga tayyorligi bilan belgilanadi.

Kommunikatsion paradigma muloqotni o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi birgalikdagi nutq faoliyati, ya‘ni “kommunikatsion liniyalar” orqali tushuntiradi: agar o‘qituvchi va talaba tushunarli til va uslubda muloqot qilmasa, ya‘ni bir xil “kodifikatsiya tizimi”dan foydalanmasa, o‘zaro tushunish va muvaffaqiyat yuzaga kelmaydi. Tizimli paradigma o‘qitish jarayonini o‘z-o‘zini tashkil etuvchi, ochiq va rivojlanuvchan tizim sifatida ko‘radi, bunda ijobiy teskari aloqa tamoyili muhim o‘rin tutadi – tizimdagi o‘zgarishlar bostirilmay, asta-sekin yig‘ilib, tizimning yangilanishiga xizmat qiladi. Gumanistik paradigma esa talabaning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning hissiy va fiziologik holatini birlamchi qadriyat deb biladi hamda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarida nutq-tafakkur refleksiyasini hisobga olishni nazarda tutadi.

Beshta paradigmanning birgalikdagi qo‘llanilishi ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini yaxlit tasvirlash imkonini beradi va talabalarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun zarur nazariy zaminni tashkil etadi.

Nutqiy kompetensiyani shakllantirishning psixologik-didaktik shart-sharoitlari. Nutqiy kompetensiya shakllanishi bir qator psixologik omillarga bog‘liq: diqqat, idrok, xotira, fikrlash, hissiyot va iroda. Diqqat barqaror va yo‘naltirilgan bo‘lishi, chalg‘ituvchi omillardan xoli bo‘lishi zarur, shu bois o‘qituvchi faoliyat turlarini almashtirib turadi. Idrok talabaning mavjud bilimiga tayanadigan faol jarayon bo‘lib, oldindan tayyorgarlik uni osonlashtiradi va chuqurlashtiradi. Individual farqlar – qobiliyat, temperament va idrok uslubi (vizual, auditiv, kinestetik) – ham hisobga olinishi lozim: vizual idrokli talabalar jadval va sxemalardan, auditiv idroklilar audio materiallardan, kinestetik idroklilar esa amaliy mashqlardan yaxshiroq foydalanadi.

Vaqt omili ham muhim rol o‘ynaydi: til o‘rganish bir kunda yuz bermaydigan, tinimsiz

mehnat talab qiladigan jarayon bo‘lib, muntazam ammo qisqa mashg‘ulotlar uzoq, ammo siyrak mashg‘ulotlardan samaraliroqdir, takrorlash oraliqlari esa materialning mustahkam yodlanishini ta‘minlaydi. Teskari aloqa nutqiy kompetensiya shakllanishining zaruriy sharti bo‘lib, u o‘z vaqtida, aniq va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi, xatoni ko‘rsatibgina qolmay, uni tuzatish yo‘lini ham taklif qilishi zarur.

Bu psixologik asoslar didaktik shart-sharoitlar orqali amaliyotga tatbiq etiladi: ta‘lim maqsadining aniqligi, mazmunning talaba darajasiga mosligi, metodlarning xilma-xilligi va qulay muhit. Ta‘lim mazmuni talabani imkoniyatidan biroz yuqori bo‘lishi – ya‘ni yaqin rivojlanish zonasiga to‘g‘ri kelishi – maqsadga muvofiqdir, chunki bunday mazmun talabani harakatga undaydi, ammo ortiqcha qiynamaydi. Zamonaviy audio-video vositalar, interaktiv dasturlar va internet resurslari bu shart-sharoitlarni boyitish imkonini beradi, biroq ular maqsadning o‘rnini bosmasligi, balki unga xizmat qilishi lozim.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, nutqiy kompetensiyaning ilmiy-nazariy mohiyati til, nutq, tafakkur va muloqotning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi, uning tarixiy rivojlanishi til bilimidan kommunikativ qobiliyatga, undan amaliy nutq faoliyatiga o‘tish yo‘nalishida kechgan. Ikkinchidan, nutqiy kompetensiya lingvistik, nutqiy, sotsiokultural va kompensator komponentlarning yaxlit birligi bo‘lib, uning shakllanishi idrok etishdan refleksiv baholashgacha bo‘lgan besh bosqichli izchil jarayondir. Uchinchidan, ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy nutq faoliyati beshta tayanch paradigma – kognitiv, innovatsion, kommunikatsion, tizimli va gumanistik paradigma – orqali yaxlit tavsiflanadi. To‘rtinchidan, nutqiy kompetensiya shakllanishi psixologik va didaktik shart-sharoitlarning uyg‘un ta‘sirini talab qiladi.

Amaliy takliflar:

- oliy ta‘lim muassasalarida “Chet til o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda nutqiy kompetensiyaning nazariy asoslarini mustaqil mavzu sifatida chuqur yoritish;
- bo‘ljak til o‘qituvchilarini tayyorlashda kommunikativ, kognitiv, innovatsion, tizimli va gumanistik paradigmalarni birlashtiruvchi integrativ yondashuvni joriy etish;
- o‘quv jarayonini rejalashtirishda talabani yaqin rivojlanish zonasini hisobga oluvchi, individual idrok uslublariga moslashtirilgan materiallar tayyorlash;
- umumta‘lim maktablari va oliy ta‘lim muassasalarida nutqiy kompetensiya shakllanishining besh bosqichi (idrok etish, takrorlash, mustaqil ishlab chiqarish, ijodiy-transfer, refleksiv baholash) asosida dars rejalarini loyihalashtirish;
- o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida psixologik-didaktik shart-sharoitlarni amalda qo‘llash bo‘yicha amaliy seminarlar tashkil etish.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hymes D.H. On Communicative Competence // Sociolinguistics / Ed. by J.B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 2001. – P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 2000. – Vol. 1 (1). – P. 1–47.
3. Bachman L.F., Palmer A. Language Assessment in Practice. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 509 p.
4. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 273 p.
5. Savignon S.J. Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom

Practice // Interpreting Communicative Language Teaching. – New Haven: Yale University Press, 2002. – P. 1–27.

6. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 4th ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007. – 448 p.

7. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. – М.: Логос, 2005. – 384 с.

8. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2008. – 352 с.

9. Пассов Е.И. Концепция коммуникативного иноязычного образования. – М.: Просвещение, 2007. – 212 с.

10. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.